

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Каримов Философия калама –рациональная основа средневекового исламского мировоззрения.....	203
D.E.Normatova Islom islohchiligi (modernizm): diniy-falsafiy va siyosiy jihatlar.....	210
B.E.Xusanov Estetik tarbiya mohiyatining falsafiy tahlili.....	215
N.M.Axmadiyev Yoshlarning axloqiy, ma’rifiy, madaniy tafakkurini yuksaltirishda keksa avlod tajribasidan foydalanishning ahamiyati.....	220
N.N.Teshayev Fuqarolik jamiyati rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari	223
K.G’.Kamolova Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida falsafaning o’rni	227
M.M.Qaxxorova, B.Farfiev Oila instituti mustahkamligining ijtimoiy-madaniy asoslari.....	232
K.U.Sharipova Jamiyatda gender tenglikning shakllanish jarayoni.....	240
S.A.Xayrullayev Jamiyat barqarorligida konsolidatsiya jarayonining konseptual asoslari.....	244
O’.X.Rajabov Maslahat – konsensusning sinergetik omili	248
Sh.T.Abbosova Milliy g’oya –insoniyatni barqaror taraqqiyot sari yetaklovchi kuch	251

SIYOSAT

K.X.Avazov Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	254
A.A.Abdilxamedov Huquqbuzarlik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyati va xususiyati.....	261
B.Y.Paluaniyazov Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligiga ta’sir etuvchi tahdidlarning namoyon bo’lish xususiyatlari.....	265
U.M.Kuranov Globallashuv sharoitida missionerlikka qarshi kurashning ma’naviy – ma’rifiy ahamiyati	270

ТАРИХ

Ma Jian, Vang Jianxin, M.Xasanov, Chen Aidong, Chjou Xinying, A.E.Berdimurodov, K.D.Arziyev O’zbekistonning Samarqand vodiysi janubiy tomonidagi 2014-yilgi arxeologik dala qidiruv ishlari hisoboti.....	275
M.X.Исамиддинов Оборонительные стены Афрасиаба и основные этапы его развития.....	309
X.Raxmatillayev Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidagi etnik jarayonlar	314
F.X.Utayeva, P.Q.Sharipova, F.G’.Rahmatova Mustaqillik yillarida Buxoro to’qimachilik sanoatida modernizatsiyalashuv jarayonlari	318
N.S.Abdullayeva Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O’zbekiston madaniy merosi namunalari.....	324
S.B.Xakimova “Xulosat ul-ahvol” asari xususida.....	329
Ш.Т.Темиров Мухаммад Сиддик Хашмат, сын Эмира Музаффар (1864-1932) – жизнь и научное наследие	332

ISLOM ISLOHCHILIGI (MODERNIZM): DINIY-FALSAFIY VA SIYOSIY JIHATLAR**ИСЛАМСКИЙ РЕФОРМИЗМ (МОДЕРНИЗМ): РЕЛИГИОЗНО-ФИЛОСОФСКИЕ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ****ISLAMIC REFORM (MODERNISM): RELIGIOUS-PHILOSOPHICAL AND POLITICAL ASPECTS****Normatova Dildor Esonaliyevna¹**¹Farg'ona davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi**Annotatsiya**

Maqolada XIX-asr o'rtalaridan arab dunyosida «Nahda» (uyg'onish) deb atalgan umumarab madaniyati yuksalishi va siyosiy ko'tarinkilik davri ekanligi yoritilgan. Yangi arab adabiyotini vujudga keltirish, ma'rifatchilikni rivojlantirish va yangi mafkuraviy yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqish ishlari olib borilganligi, «Nahda» — har tomonlama rivojlanish, deb talqin qilinganligi, Nahda ijodkorlari arablarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalardagi ilgari kuch-qudratini tiklashni asosiy vazifa deb bilganlari holda, G'arb va Sharq madaniyati elementlarini sintez qilishga harakat qilganliklari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье описывается развитие общеарабской культуры и политические изменения в арабском мире с середины XIX века, получившие название «Нахда» (возрождение). Осуществлялось создание новой арабской литературы, развитие просвещения и разработка новых идеологических ориентиров, «Нахда» трактовалась как всестороннее развитие, творцы «Нахды» считали главной задачей восстановить экономическую, политическую и культурную мощь арабов, также старались синтезировать элементы западной и восточной культуры.

Abstract

The article describes the development of pan-Arab culture and political changes in the Arab world since the mid-19th century, called "Nahda" (renaissance). The creation of new Arabic literature, the development of education and the development of new ideological guidelines were carried out, "Nahda" was interpreted as a comprehensive development, the creators of "Nahda" considered the main task to restore the economic, political and cultural power of the Arabs, and also tried to synthesize elements of Western and Eastern culture.

Kalit so'zlar: din, dunyoqarash, g'oya, tamoyil, "Nahda", madaniy yuksalish, islohot, mafkura, namoyanda, ijtimoiy tafakkur, madaniy taraqqiyot.

Ключевые слова: религия, мировоззрение, идея, принцип, «Нахда», культурный подъём, идеология, социальное мышление, облик, культурное развитие.

Key words: religion, worldview, idea, principle, "Nahda", cultural upsurge, ideology, social thinking, appearance, cultural development.

KIRISH

O'zbekiston — an'anaviy islom tarqalgan o'lkalardan biri, o'rta asrlarda yurtimizdan chiqqan allomalar asarlari islomiy ilmlar taraqqiyotida yetakchi o'rin olganini o'rgatish hamda hozirgi zamon islom konsepsiyalari, ularning g'oyaviy asoslari, islom dinining kelib chiqish sabablari, islom dinining tarixi va falsafasi, islom dini ahkomlarining shakllanish tarixi va tadrijiy taraqqiyotini to'laqonli tarzda yoritish dolzarb vazifalardan biridir. Islom tarixi va falsafasini tinglovchilarda tarixan muayyan paytda vujudga kelgan va hozir ham faoliyat ko'rsatayotgan mafkuraviy tizim sifatida ilmiy tasavvur hosil qilish, islom ta'limotining shakllanishi va mohiyati, uning Sharq xalqlari ijtimoiy-siyosiy, madaniy va xususiy hayotidagi roli to'g'risida to'liq ma'lumotlar berishdir. Ushbu maqolada tarixda o'tgan shaxs va voqealarning rivoji va borishi haqida tanishtirib, ularning o'zlarini ham shunday shaxs qilib yetishtirish, komillikka intilishga da'vat etish masalalarida g'oyaviy-axloqiy nuqtai-nazarni shakllantirish hamda tarbiyalash maqsad qilib olingan. Uslubiy qo'llanmadan islom tarixining o'ziga xos xususiyatlari, islom tarixini o'rganishda Sharq va G'arb olimlarining yondashuvlari, islom tarixi masalalarini yechish uslublari, islom tarixini davrlashtirish, islom va jahon tarixi, dunyo siyosatida "islom omili" haqida bilimga ega bo'lish imkoniyati mavjud.

Islom dini tarixi va falsafasini bayon etishda uning "Johiliya" asridan boshlab to hozirgi kungacha tadrijiy taraqqiyot bosqichlarini ochib berishga harakat qilindi. Islom dini tarixi bo'yicha hanuzgacha jahon fanida o'z yechimini topmagan muammolar mavjud.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Islom dini tarixi hamda arab madaniyati, arab adabiyotiga qiziqish har bir davrda o'ziga xos

FALSAFA

tarzda ifodalangan. Milliy mustaqillik tariximizni, jumladan, muqaddas dinimiz tarixini, uning manbalarini o'rganish imkonini berdi.

Bu borada islomshunos olimlar Azimov A., Ziyodov Sh., Zohidov Q., Mahmud M., Mansur A., Ibrohimov N.I., To'xliyev N., Hasanov A., Mo'minov A., Mo'minov A, Qoriyev O.,larni ta'kidlash o'rinli.

Shuningdek, mavzuga doir rus olimlari N.M.Badaii, A.A.Kudelin tomonidan chop etilgan «Влияние арабского возрождения (Ан-Нахда) на идеологию «Братьев-мусульман» номли maqolalari, London universiteti professori Sami Zubaydaning «Исламская реформация?», Sofiya Ragozinaning «Исламская реформация: позитивный проект или искусственный концепт» номли maqolalari bilan bu y o'nalishda o'z munosabatlarini bildirganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada XIX-asr o'rtalaridan arab dunyosida «Nahda» (uyg'onish) deb atalgan umumarab madaniyati yuksalishi va siyosiy ko'tarinkilik davrini tadqiq etishda dialektik, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, sintez kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

XIX-asr o'rtalaridan arab dunyosida «Nahda» (uyg'onish) deb atalgan umumarab madaniyati yuksalishi va siyosiy ko'tarinkilik davri boshlandi. Yangi arab adabiyotini vujudga keltirish, ma'rifatchilikni rivojlantirish va yangi mafkuraviy yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqish ishlari olib borildi. «Nahda» — har tomonlama rivojlanish, deb talqin qilindi. Nahda ijodkorlari arablarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi ilgari kuch-qudratini tiklashni asosiy vazifa deb bilganlari holda, G'arb va Sharq madaniyati elementlarini sintez qilishga urindilar. «Arab Nahdasi,- deb yozgan edi rus tarixchisi L.N.Kotlov, — arab milliy qo'zg'alish, o'zligini anglash, dunyoda arablarning tutgan o'rni, arab millatparvarlik elementlarining tiklanish davrini ochib berdi» (1;25). Bu harakat bevosita islom ta'siri ostida kechdi. Diniy dunyoqarash ijtimoiy tafakkurning o'sishiga faol ta'sir ko'rsatdi va uning rivojlanish yo'lini belgilab berdi. Islomning roli orta bordi, chunki u G'arbiy Yevropa kapitalining kirib kelishiga qarshi harakat uchun asos yo'llardan edi. Islom omma orasida hukmron mafkura ekanligi g'oyaviy – siyosiy oqimlarga diniy tus berish zaruratini oldindan belgilab berdi. Jamiyatdagi yangi mafkuraviy ko'rinishlarning kurtaklari diniy hayotda ko'proq sezila boshladi. Mafkuraviy kurash islomning keskin tangligi doirasida kuchaydi. Chunki islomning aqidaviy, huquqiy va diniy marosimlari kuchli o'zgarishlarni kechirmoqda, o'rta asr shaklidagi diniy dunyoqarash barham topmoqda edi. Bunday sharoitda Misrda bir qator ilohiyotchilar va huquqshunoslar islom islohchilik harakatining tashabbuskorlari sifatida siyosiy maydonga chiqdilar.

Musulmon islohchilari asosiy maqsad sifatida diniy islohchilik g'oyasini olg'a surgan holda, islom aqidalari va prinsiplarini tubdan o'zgartirish yoki yangidan ko'rib chiqish uchun jonbozlik ko'rsatmadilar, aksincha, an'anaviy islom unsurlarining ba'zi jihatlarni taftish qilish kerak, deb chiqdilar. Islohchilik harakatining yirik namoyandalardan biri Jamoliddin al-Afg'oniy edi (1839-1897). Uning Misrda islohchilik va mustamlakachilikka qarshi siyosiy fikrlarini targ'ib qilishi mamlakatda ijtimoiy-siyosiy hayotning faollashishida muhim rol o'ynadi.

Al-Afg'oniy tomonidan ilgari surilgan diniy islohchilik g'oyalarini nihoyasiga yetkazgan va bir tizimga solib, rivojlantirgan olim, al-Afg'oniyning maslakdoshi va buyuk shogirdi shayx Muhammad Abdodir (1849-1905).

Muhammad Abdo islohchilik harakatining taniqli rahbari va mafkurachisi, hatto islohchilikning ba'zi qoidalarini hayotga tadbic qilish tashabbuskori bo'lib ham chiqdi. Muhammad Abdo o'zining «Tafsir al-Qur'on al-hakim» va «Risalat at-tavhid» asarlarida islomga baho berishda o'zi ishlab chiqqan yangi mezonlarni, islohchilikning nazariy-mafkuraviy negizini tashkil qilgan diniy tamoyillarni bayon qildi (2;48). Musulmon islohchilari dinda asosiy narsa — bu Allohning birligiga, qudratli yaratguvchining hamma narsani tashkil qilishdagi roliga ishonishdir deb hisobladilar. Muhammad Abdo va uning izdoshlari fikricha, yaratguvchiga bo'lgan e'tiqod aqidalarda aniq belgilangan va u ba'zi nufuzli kishilarga ko'r-ko'rona ergashishga asoslanmasligi lozim, ya'ni Allohning borligiga har kimning o'zida asos bo'lsin, dinning isbot talab qilmaydigan qoidalarini aql bilan idrok etsin. M.Abdoning fikricha, dinni idrok qilish va anglashda inson aql mezoniga suyanishi zarur.

Islohchilar Qur'onni musulmonlarning «muqaddas tayanchi», har narsani o'z ichiga oladigan ilm manbai, ijtimoiy va shaxsiy hayotning mustahkam asosiy hujjati deb hisoblardilar. Binobarin, Qur'onni tarixiy, falsafiy, ilohiy nuqtai nazardan talqin qilish mezoni va uslubini ishlab chiqish masalasi turar edi. Shu bois, bir-biriga tamoman teskari bo'lgan ikki tamoyil — ijthod va taqlid

masalasini yechishda islomdagi an'anaviylik oqimi namoyandalari va islohchilar o'rtasidagi kelishmovchilik yaqqol ko'rina boshladi. An'anaviychi ulamolar aqlga asoslanmagan va tekshirish mumkin emas, deb qabul qilingan aqida-taqlidga so'zsiz ergashish lozim deb ta'kidlaydilar. Islohchilik harakatining mafkurachilari esa, islomning muqaddas merosini erkin talqin qilish huquqi — ijthod prinsipini tiklashni yoqlab chiqdilar. Bu g'oya bilan birinchi bo'lib al – Afg'oniychi chiqdi. Arab tarixchisi Usmon Amin al-Afg'oniychi bu yo'nalishdagi faoliyatini tavsiflab, bunday deb yozadi: «O'sha davrda hukmron ilohiyotga qarshi faol va dovyurak kurashchi hamda iymonning haqiqiy mohiyatini ochib berishda taqlidga qarshi murosasiz kurashchi edi» (3;56). O'zining ustozini yo'ldan borgan M.Abdo ijthodni an'anaviy musulmon ta'limoti maddohlariga qarshi harakat asosi, deb qaradi.

M.Abdo fikricha, Qur'onni sharhlash uchun arab tilini chuqur bilish, taqlidni rad etish va diniy matnlar mohiyatini fikrlashda mustaqil bo'lish kifoyadir. U yana shuni ta'kidlaydiki, boy hayotiy tajribaga va asrlar mobaynida to'plangan bilimlarga ega bo'lgan hozirgi avlod muqaddas kitobni talqin qilishda o'zining o'tmishdoshlariga qaraganda birlamchi huquqqa egadir. M.Abdo ijthod prinsiplarini ham Qur'onga nisbatan, ham payg'ambarimizning sunnatlariga nisbatan ishlatishga da'vat qildi. Chunki, Qur'ondagi yetarli darajada oydin bo'lmagan so'zlar sunna bilan taqqoslangandagina hayotiy va ta'sirchan bo'ladi. Shuning uchun ham u o'zining mashhur asari bo'lgan «Risalat at-tavhid»ning oxirgi bobini shu masalaga bag'ishladi. Omma orasida e'tirof etilgan, mashhur muhaddislar tomonidan haqiqiyliги aniqlangan hadislar (as-sunna al-mutavotira), Abdo fikricha, musulmonlarning xatti-harakatlari uchun qo'llanma bo'lishi darkor. Lekin isnodlari 1 dan 5 gacha bo'lgan hadislarini (al-ohod) musulmonlar o'zlari ixtiyoriy ravishda hal qilishlari mumkin. «Agarda biron-bir musulmon hadisning sahihligiga shubhalansa yoki biror rivoyatning mazmuni haqida xabardor qilinmagan bo'lsa, u odamga muqaddas odatni buzganligi haqidagi ayb asossizdir», — deydi M.Abdo (4;67).

M.Abdo tomonidan olg'a surilgan umumiy qoidalar uning shogirdlari va maslakdoshlari tomonidan kengaytirildi va rivojlantirildi. Misr matbuotida hadis ilmi jonli munozaraga aylandi, unda Muhammad Tavfiq Sidqiy, shayx Toha al-Bishriy, Ahmad al-Baz kabi mashhur ilohiyotchilar qatnashdilar. Muhammad Abdo musulmon diniy merosini yangitdan idrok etish masalasi az-Zavaxiri, Abdurahmon al-Kavakibi, Abbos Mahmud al-Aqqod, Mustafu Abdur-Roziq, Rashid Rido, Qosim Amin kabi ko'zga ko'ringan arab jamoat arboblari va diniy islohchilarning dunyoqarashi shakllanishida kuchli ta'sir qildi. Ijthod prinsiplari hozirgi zamon musulmon mafkurachilari va tadqiqotchilari orasida keng tarqaldi. Buning isboti sifatida M.Abdo izdoshi, mashhur misr tarixchisi Ahmad Aminning ta'kidlashicha, agar birinchi buyuk musulmonlar ijthodga murojaat qilmaganlarida edi, ular Misrdagi, Suriyadagi, Iroqdagi yutuqlarni hech qachon qo'lga kiritmagan va u yerlardagi boshqaruvni amalga oshira olmagan bo'lur edilar. Arabiston badaviylaridan chiqqan Xolid ibn al-Valid va Muso ibn Nassar kabi ko'pgina mashhur shaxslar o'zlarini yunon va fors madaniyati oldida zehniroq va iste'dodliroq ekanliklarini ko'rsatdilar, chunki ular ham ijthodga murojaat qilgan edilar.

Qur'onning yangi ratsionalistik (aqlga asoslangan) talqiniga misol qilib, Muhammad Abdo besh tomli «Tafsir al-Qur'on al-hakim» fundamental asarini keltirish mumkin. U tafsirni 4-suraning 125-oyatigacha yetkazdi. 1901 yildan boshlab «al-Manar» jurnalida qismlarga bo'linib nashr qilingani uchun, uni «Tafsir al-Manar» deb ham ataganlar. M.Abdo o'limidan so'ng bu ishni Rashid Rido davom ettirdi. Keyinchalik M. Abdo «Tafsiri» alohida kitob bo'lib chiqdi va ko'pgina musulmon mamlakatlarida nashr qilindi. M. Abdo 6u asari hozirgi davrga qadar musulmon ilohiyotida eng e'tiborli va unga taqlid qilish uchun eng qimmatli misol bo'la oladi. Rus olimasi A.A.Dolinaning fikricha, Qur'onning keyingi barcha tafsirlari M. Abdo chizib bergan yo'ldan borgan va bormoqda. Unda tinchlik uchun kurashish zarurligi va kosmosga uchish bashorati o'z aksini topgan.

M.Abdo barcha klassik tafsirlar ichida o'rta asr olimi az-Zamaxshariyning (1074-1143) «al-Kashshof»ini alohida ko'rsatadi. M. Abdo Qur'on matnlari sharhini bir necha qismga bo'ladi. Kirish qismida konkret tanlab olingan suraga e'tibor qilish zarurligini isbotlaydi. So'ng sura matnidagi ma'lum bir diniy terminlar va tushunchalarning mohiyati ochilib, mukammal tahlil qilinadi. Tafsirning eng katta qismi bo'lgan xotimasida sura oyatlari o'z ichiga olgan yo'l-yo'riqlar va asosiy muammolar aql-mulohaza yuritish yo'li bilan tahlil qilinadi. Bunda u asosiy masalalar sifatida baxt va iztirob o'rtasidagi munosabatni hamda diniy-falsafiy tushuncha bo'lgan tanlash va ega bo'lishni ajratib ko'rsatadi. Tafsirni har tomonlama o'rganish bilan bir qatorda, Abdo ma'lum masalalarni o'z ichiga

FALSAFA

olgan Qur'on oyatlari bilan ham shug'ullanadi. Bu turdagi sharhlarda tarix, falsafa va ilmiy bilishning dolzarb masalalari, masalan, yaxshilik va yomonlik, Qur'on va millat, ilm va o'qitish va hokozolar ko'tarilgan. Qur'on matnlarini sharhlashda Abdo arab jamiyatida ayolning o'rne masalasida ijthod prinsiplaridan foydalanishni misol sifatida yaqqol ko'rsatib berdi. Musulmon qonunchiligida eng aniq va mukammal ishlab chiqilgan qism oila huquqidir.

Musulmon islohchilari inson aqlini ozod qilish jarayonini arab falsafiy merosini o'zlashtirish, xususan mantiq ilmi bilan bog'laydilar. Jamoliddin al-Afg'oniy Ibn Sino asarlariga katta e'tibor berdi. Uning fikricha, mantiq ilmi — ilm andozasi va falsafiy bilimlarga kirishdir. 1875 yildan boshlab M. Abdo klassik mantiq asoslarini mustaqil ravishda o'rgana boshladi. Ikki yildan so'ng uning «Kalom va mantiq himoyasiga doir» nomli tanqidiy maqolasi chop etildi. U mantiq ilmini aql uchun quruq nazariy mashq emas, balki irodali harakatning asosini tashkil qiluvchi aqliy ijodiy tafakkurning amaliy usuli, deb qaradi. Arab islohchilari mantiqni haqiqatga yetish vositasi, shaxsni xurofot hukmronligidan ozod qilish va zehn darajasini oshiruvchi tafakkur qilish (fikrlash) san'ati, deb qaradilar.

Intuitiv bilish, islohchilar fikricha, faqat payg'ambarlarga xos xususiyatdir. Chunki payg'ambarlar ilohiy haqiqat va inson aqli o'rtasida bog'lovchi vazifasini o'taydilar. Ular (payg'ambarlar) ko'p sonli jamoalar xulq-atvorini tartibga solib turuvchi diniy-axloqiy qonunlarni insoniyatga yetkazib turadilar. Shu bilan birga islohchilar ilohiy elchi «muqaddas kitobni» yetkazishdagi o'zining xatti-harakatidagina yanglishmaydi deb hisoblaganlar. M. Abdo Payg'ambarni o'zining axloqiy va komil aql-zakovati bilan boshqa insonlardan ajralib turadigan inson, lekin g'ayritabiiy shon-sharaflardan mahrum etilgan shaxs, deb hisoblagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inson irodasi masalasi musulmon ilohiyotchilari diqqat-e'tiborini tortib kelgan. Bir-biriga qarama-qarshi ikki g'oyaning turli variantlari muhokama qilingan. Birinchisi inson irodasi mutlaq erkin bo'lmaganligini ta'kidlasa, ikkinchisi inson irodasining mustaqilligini va insonning ilohiy ishlardan erkinligini e'tirof etadi. Musulmon islohchilari bu ikki qarama-qarshi g'oyalar uchun kompromiss (murosa) variantini qidirish yo'lidan bordilar. Inson va ilohiy iroda nisbati masalasini yechishni falsafiy erkinlik va zaruriyat masalasiga ko'chirdilar. M. Abdo bu masalani pragmatik tarzda tahlil qildi. Uning fikricha, inson o'zining odatdagi tabiiy xususiyatiga ko'ra iroda erkinligiga egadir. Bu xususda Qur'onda 64 ta oyat mavjud. Iroda erkinligini e'tirof etish zaruratga aylanmoqda, aks holda inson xatti-harakatidagi mas'uliyat yo'qoladi. «Iroda omili va aqlga muvofiqlik mezon,-degan edi M. Abdo,- bu shunday mezonki, uning yordamida aql-zakovatli inson qiyin hollarda o'z xatti — harakati ahamiyatini (qimmatini) belgilaydi». Bunday g'oyalar bilan M. Abdo fatalizm elementlari ko'rinishini ancha chekladi va inson taqdiri oldindan to'la belgilab berilganligi haqidagi aqidaparast-an'anaviyichilarning abstrakt yasamalariga e'tiroz bildirdi. Bundan tashqari u inson qobiliyatining atrof olamga faol ta'sir qilish mumkinligi to'g'risidagi tezisni ilgari surdi. «Har bir musulmon Alloh unga buyurganidek o'zi tanlashi va mehnat qilishi kerak». Agarda har bir inson qobiliyatga ega bo'laturib, o'sha darajada mehnat qilmasa, bu dunyoda ham va u dunyoda ham azob-uqubatlar va kulfatlardan qutulmaydi, — dedi Abdo. Shunday qilib, inson o'z xatti-harakati uchun mas'ul bo'lib qoladi va ilohiy qonun doirasida o'z hayotining ijodkoriga aylanadi. «Baxt va rohat-farog'atga yetishish,- deydi Abdo,- musulmonning diyonatli mehnati va iymoni natijasidir».

M. Abdo musulmonlarni loqaydlikdan hamda hozirgi va kelgusi hayotlarini o'tmishdagi buyuk iftixorga suyanib ko'rishdan voz kechishga chaqirdi. Musulmonlarni yangicha munosabatlar sharoitida yashashga moslashtirish zarurati islohchilarni inson axloqi va tarbiyasi masalasiga e'tibor berishga majbur etdi. Muhammad Abdoning bundan ko'zlagan maqsadi, muqaddas matnlarni inkor qilmagan holda ilgarigi aqidaparastlarga ko'r-ko'rona ergashmaslik yoki ularning ta'siriga tushib qolmaslik edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbehul g'ofilin. Dilmurod Qo'shoqov tarjimai. T.: Movarounnahr, 2000.
2. Azimov A. Islom va hozirgi zamon. T., 1992.
3. Azimov A. Islom va hozirgi zamon: ma'ruzalar matni. T.: ToshDSHI, 2000.
4. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-Jomi as-sahih (ishonarli to'plam). 4 jildli. T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1999.
5. Jo'zjoniy A.; Sh. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. "Toshkent islom univesiteti nashriyoti". 2002 yil.

6. Mansur A., Ibrohimov N.I., To'xliyev N., Hasanov A. Ilmu ma'rifat nuri (Saylanma hadislar). T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1998.

7. Mo'minov A.Q. Dinshunoslik asoslarini o'qitish va o'rganishning yagona konsepsiyasi. T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 1999.

8. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyoti, 2001.